The results of the comparison of the results of the economic analysis of 2021–2022 on crop industries of Samarkand region are presented. It includes crop and livestock crop area, number of heads, gross yield, gross productivity, gross income, total cost, profit, and profitability. The grapes grown in the raisin-growing village "Uchkara" of the Xatirchi district of Navoiy region, which have been neglected, are grown in space and "Dala-dasturkhan", "Dala-magazin-uy", "Dala-magazine-consumer", "Dala-cattle complex", Scientific and practical recommendations and suggestions were given about the problems and their solutions in the organization of such types of infrastructure as "Vetapteka-livestock complex", as well as the organization of the "Order Desk".

Key words: health, carrots, apples, order desk infrastructure, livestock, farming, profitability, employment, poverty, economic efficiency, etc.



Аннотация: В данной научной статье описана роль активного предпринимательства в повышении экономической эффективности в плодоовощных кластерах, деятельность активного предпринимателя, предпринимателя, предпринимателя, бизнесмена. Научные исследования о количестве созданных в Самаркандской области плодоовощных кластеров, их значении в улучшении экономического и социального положения населения региона, возможностях инфраструктурных (сервисных) структур по производству продукции и доставке ее потребителям в своевременную и качественное состояние, а также пути обеспечения занятости молодежи и семей в сфере бизнеса, сокращения бедности – даны практические рекомендации.

Представлены результаты сравнения результатов экономического анализа 2021–2022 годов по отрасли растениеводства Самаркандской области. Он включает площади посевов сельскохозяйственных культур и животноводства, поголовье, валовой сбор, валовую продуктивность, валовой доход, общие затраты, прибыль и рентабельность. Виноград, выращенный в запустевшем изюмном селе Учкара Хатирчинского района Навоийской области, выращивается в космосе, а “Дала-дастурхан”, “Дала-магазин-уй”, “Дала-магазин-потребитель”. “Дала-скотоводческий комплекс”, даны научно-практические рекомендации и предложения по проблемам и их решениям в организации такого вида инфраструктуры, как “Ветаптека – животноводческий комплекс”, и организации “Службы заказов”.

Ключевые слова: здоровье, морковь, яблоко, инфраструктура службы заказов, животноводство, фермерство, рентабельность, занятость, бедность, экономическая эффективность.

KIRISH

2024-yil – “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”

Eksporthilarga to‘g‘ri, tartibli va chiroyli qadoqlashni o‘rgatish kerak – Sh.M.Mirziyoyev

Meva-sabzavotchilik klasterlarida faol tadbirkorlikning iqtisodiy samaradorlikni oshirishdagi o‘rnini aniqlash uchun Samarqandda 2021-yilgacha o‘z faoliyatini yuritayotgan 13 ta meva-sabzavotchilik klasterlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2021-yil 15-dekabr, PQ-52-son “Meva-sabzavotchilik sohasini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, tarmoqda klaster va kooperatsiya tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga binoan takomillashtirilmoqda. Hozirgi vaqtda ular soni 16 ga yetdi. Ilmiy izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, viloyatda yetishtirilayotgan meva-sabzavotlarning 30-40 foizi nobud bo‘lmoqda. Ularni o‘z vaqtida kasalliklardan, sovuq urishidan, yetishtirish, yig‘ishtirish vaqtidagi e‘tiborsizlik, qattiq shamoldagi to‘ki-lishlar, muddatlarda terilmaganlik, hamda yig‘ishtirish vaqtidagi yo‘qotishlar, saqlash, tashish, ichki iste‘molchilarga va xorij mamlakatlariga eksport qilishda va boshqa sabablarga ko‘ra yo‘qotishlar h.o.

Meva-sabzavotchilik klasterlari sohasida mahsulot ishlab chiqarish, qayta ishlash, saqlash, xizmat ko‘rsatish va sotish (eksport qilish) jarayonlarini o‘zaro integratsiya qilish, klasterlar (kooperatsiya) faoliyatini rivojlantirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash va eksport hajmini oshirish maqsadida 2022-yil 1-yanvardan boshlab Qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan tijorat banklari orqali quyidagilarga: fermer, dehqon xo‘jaliklari va boshqa mahsulot yetishtiruvchilarga – meva, uzum, sabzavot, kartoshka, poliz ekinlari, gul, ko‘katlar va dorivor o‘simliklar, makkajo‘xori doni, dukkakli va moyli ekinlarni yetishtirish uchun hosil qiymatining 50 foizigacha yillik 14 foiz (shundan 2 foizi bank marjasi) stavkada 6 oylik imtiyozli davr bilan 12 oy muddatga kreditlar ajratilishi va imtiyozlar berilgan. 2018-yil yurtimizda agroklastlar barpo etish masalasi g‘oyasi ilgari surilgan edi. Hozirgi kunda klasterlarni tashkil qilish va faoliyatini yuritish borasida asosiy ishlar amalga oshirilib, ular soni respublikamizda 800 tadan oshdi. Olim va mutaxassislarining ko‘pchiligi bu yo‘lni tanlashmoqda. Chunki, mamlakat darajasida iqtisodiy samaradorlikni oshirishda, infratuzilma yo‘nali-shini jahon andozalari darajasiga olib chiqishda, bandlik va kambag‘allikdan chiqishda fermerlarga, dehqon xo‘jaliklariga, shaxsiy tomorqa yer egalariга servis xizmatlarni takomillashtirilgan holda tashkil qilish va bosh-qarish zaruriyati mavjuddir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Klaster nazariyasi XIX asrda dastlab nemis iqtisodchisi logan Genrix fon Tyunen va uning izdoshlari V.Launxard hamda A.Veberlar tomonidan ilgari surilgan. A.Marshall o‘zining “Iqtisodiyot fani prinsiplari” ishida tadqiqot obyekti tarzida shahar aglomeratsiyasi va industrial hududlarni tanlab, o‘tkazgan tadqiqotlarida samaradorlik va ishlab chiqarish geografik lokalizatsiyasi o‘zaro bog‘liqligini bayon etgan. U korxona va tashkilotlar samaradorligi ularning iqtisodiy zonalar yaqinida geografik joylashuviga bog‘liqligini isbotlagan. B.Lundval va B.Yonsonlar esa klaster nazariyasi bilan bog‘liq “rivojlanish bloklari” konsepsiyasini taklif etganlar hamda soha yoki hududiy ishlab chiqarish birlashmalari, butun mamlakat aholisini uzluksiz o‘qitish jarayoni milliy iqtisodiy yuksalish va raqobatbardoshlik manbai ekanligini ta‘kidlaganlar. Klaster nazariyasining zamonaviy talqini XX asrning 80-yillarida to‘laqonli shakllandi. M.Poter yirik raqobatbardosh kompaniyalar ma‘lum hududlarda konsentratsiyalashuvga moyilligini empirik jihatdan isbotlagan. Bu muallifning fikricha “Klaster bu hududiy (geografik) jihatdan bir-biriga qo‘shni, o‘zaro bog‘langan, ma‘lum sohada faoliyat ko‘rsatuvchi, umumiy maqsad

yo'lida bir-birini to'ldiruvchi kompaniya va u bilan bog'liq tashkilotlar guruhidir". Chetdagi rivojlangan mamlakatlar faoliyatida klasterlar iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida allaqachon yetakchi tizimga aylangandir. Masalan, Shvetsiyada mehnatga layoqatli fuqarolarning 39 foizi, AQSHda xususiy sektordagi odamlarning 32 foizi klasterlarda ishlaydi Hindiston davlati klasterlarida mamlakat eksportining 60 foizdan ko'prog'i ishlab chiqariladi. Raqobatbardosh kompaniya milliy iqtisodiyot sohasi raqobatbardoshligini shakllantiradi, raqobatbardosh soha esa o'z navbatida dunyo bozorida mamlakat raqobatbardoshligini ta'minlaydi va saqlab turadi. Ilmiy manbalarda keltirilishicha iqtisodiyot klasterlariga asosan uch xil yondashuv mavjud:

- 1) uncha katta bo'lmagan hududda yirik korxona yoki kompaniya atrofida jamlangan xo'jalik subyektlari;
- 2) tadqiqotdan to'zaxiralar ta'minoti, savdo va undan keyingi xizmat ko'rsatishgacha to'la-to'kis qamrab olingan, ishlab chiqarishning barcha bosqichlarini birlashtirgan, ma'lum mahsulot yaratishda qatnashuvchi korxona va tashkilotlarning vertikal texnologik tizimidagi jamlanmasi;
- 3) soha klasteri.

Hozirgi kunda dunyoning ko'plab mamlakatlari turli tarmoqlarida klasterlar faoliyati yo'lga qo'yilgan. Yuqorida keltirilgan qarorda, O'zbekiston Respublikamizda bugungi kunda jami 800 dan ziyod klasterlar tashkil etilgan bo'lib, birgina Samarqand viloyatida 44 ta klaster faoliyat yurityapti, jumladan, meva-sabzavotchilik sohasida 16 ta, g'allachilik sohasida 12 ta. Yildan yilga klasterlar soni oshib hamda ular faoliyati takomillashtirilib borilmoqda. Ayrim mamlakatlar misolida aytadigan bo'lsak, Amerika Qo'shma Shtatlarining mehnatga yaroqli aholisini 78-84 foizi xizmat (infratuzilma) sohasida mehnat qilar ekan. O'zbekistonda esa 24-45 foiz mehnatga yaroqli aholimiz infratuzilma sohasida banddir. Band bo'lmagan aholimiz oldinlar 34 foiz bo'lsa, keyingi vaqtda 16-17 foizdan 14 foizga tushgan. Samarqand viloyatida esa 9 foizga tushdi. Bu raqamni yanada kamaytirishda sohalar yo'nalishida klasterlarni mahalliy va xorijiy tajribalarni o'rgangan holda aholiga to'g'ri va to'liq ma'lumotlarni ular ongiga singdirgan holda tashkil qilish, yuqorida aytilgan muammolarni hal qilish mumkin bo'ladi.

Metodlar: monografik, statistik, taqqoslash va boshqa usullar yordamida tahlil qilganmiz.

TAHLILLAR VA ASOSIY NATIJALAR

2021-yil 13-fevral ma'lumoti bo'yicha 2020-yil yakuniga ko'ra, Samarqand viloyatida 13 ta meva-sabzavotchilik klasterlari tashkil etilgan edi. Ushbu klasterlarni rivojlantirish maqsadida 21,5 ming gektar maydon birlashtirildi. Klasterlar tomonidan qayta ishlash va saqlash quvvatlarini oshirish bo'yicha qiymati 16,1 milliard so'mlik 4 ta loyiha bajarilishi hamda klasterlar tomonidan 61,3 milliard so'mlik 0,7 ming gektar intensiv bog' va 92,4 milliard so'mlik 1,6 ming gektar yangi tokzor tashkil etilgan. Klasterlar tomonidan 2020-yilning 11 oyi davomida 28,2 million dollarlik 27,0 ming tonna meva-sabzavot mahsulotlari xorij davlatlariga eksport qilindi. 2021-yil hosili uchun 2020-yil kuz oylarida barcha toifa xo'jaliklarida to'qsonbosti usulida 25,4 ming gektar maydonga sabzavot ekinlari, jumladan, avgust-sentyabr oylarida 7 ming gektar yerga piyoz va sarimsoqpiyoz, noyabr-dekabr oylarida 18,4 ming gektar maydonga boshqa sabzavot ekinlari ekilgan edi. Iqtisodiy tahlil natijalariga to'xtalishdan oldin 2024-yilning nomlanishini hisobga olaylik: "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili". Shunga asoslanib, quyidagi ta'riflarni beramiz: Faol tadbirkor-bu-innovatsion g'oyalar, texnika va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlashga tashabbus bilan harakat qiluvchi mulkchilikning har xil turlari va shakllarida mehnat qilayotgan sog'lom, ongli mehnati bilan atrofidagi kishilarga nisbatan o'zining ilmiy-amaliy salohiyoti, vatanga, borliqqa, qariyalarga, nogironlarga, yoshlarga va boshqa muhtojlarga mehr beruvchi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini yaxshi o'zlashtirgan hamda doimiy amal qiladigan, tajribasi, asosli tavakkalchiligi yo'nalishlarini hayotda qo'llab kelayotgan, jamiyat, tabiat, falsafiy, iqtisodiy, menejment qonunlari, usullari, tamoyillaridan to'g'ri foydalanaoladigan, iqtisodiy, moliyaviy, siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy (jumladan, farosatli), ekologik dunyo-qarashni o'zida mujassamlashtirgan va boshqalarga qaraganda ijobiy ustunlikka erishib kelayotgan zamon kutgan kishidir.

Ishbilarmon – bu mulkchilikning bir xil turi yoki shaklida mehnat faoliyatini olib borayotgan, o'zi bajarayotgan yumushini boshqalarga nisbatan yuqori darajada ustamonlik bilan uddalayotgan omma o'rtasida obro'-e'tiborga sazavor bo'lib kelayotgan bir sohaning rahbari, mutaxassisi, dehqoni, tomorqa yegasi, hunarmandi va kasb egasidir.

Biznesmen – bu mulkchilikning har xil turi yoki shaklida mehnat qilayotgan, o'z faoliyatini foyda olishga, pul topishga qaratilgan yo'nalish egasidir. Navbatda iqtisodiy samaradorlikni oshirishdagi imkoniyatlar haqidagi iqtisodiy tahlil natijalarini keltiramiz. Chunki, dunyoda hech bir davlat yo'qki, aholi muayyan qismining kambag'alligi, jamiyatda faol emasligi bilan bog'liq muammolarga duch kelmagan bo'lsa. Birgina Samarqand viloyatida foyat ko'rsatayotgan 44 ta klasterda ishlovchilarning 34,6 foizini xotin-qizlar tashkil etmoqda, jumladan, viloyatdagi 16 ta meva-sabzavotchilik klasterida ishlovchilarning 38,4 foizini xotin-qizlar tashkil etadi. Meva-sabzavotchilik klasteri tarkibiga kiradigan ayrim kutgan natijalarni bermayotgan Navoiy viloyati, Xatirchi tumanidagi qadimdan uzumchilik va mayizchilikka ixtisoslashgan Uchqora qishlog'i haqida ilmiy izlanishlarni bir qismi sifatida aytisak, bu qishloq Hindiston astronomlarining aniqlashicha, yer sharining 41-meridiani va 41-parallelida qora toshli



tog' bag'rida joylashgan. Uzum tarkibidagi qandlik miqdori 38% ga yetadi. Sobiq Ittifoq davrida Uchqora mayizini kosmonavtlar kosmosda iste'mol qilish uchun Moskvadan vakillar kelib, qishloqdagi dehqonlardan uzum va mayiz mahsulotlaridan maxsus buyurtma asosida olib ketishgan (marhum, O'zbekiston Qahramoni, sobiq Samarqand viloyati partiya tashkilotining birinchi kotibi Bektosh Raximov ma'lumoti, chunki Xatirchi tumani o'sha davrda Samarqand viloyati tarkibida bo'lgan) ^[15]. O'zbekistonda uzumlardagi qandlik miqdori 26 foizni tashkil qiladi. Jahondagi uzumlardagi qand miqdori 17–18 foiz bo'lganda uzum iste'mol uchun ishlatiladi. Biroq mazkur tuman tarmoqlarida "Buyurtma stoli" va raqamli iqtisodiyotni joriy etish, zamonaviy xizmat ko'rsatish infratuzilmasi subyektlari tashkil etilmagan, toza suv inshootlar mavjud emas, gaz umuman yo'q hisobi.

Uzumchilik klasterlarida ishlab chiqarish va uni qayta ishlash korxonalariga zamon talablariga mos faoliyatni yo'lga qo'yish, investitsiyalar jalb qilish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish, eksport hajmini oshirish va ularni yangi bozorlarini topish, sotuv kanallari sonini ko'paytirish, kengaytirish va takomillashtirish kabi vazifalar yuklanmoqda. Mamlakatimizda klasterlar bilan bog'liq ilmiy izlanishlar boshlanishi 2000-yillarga to'g'ri keladi.

Samarqand viloyati meva-sabzavot klasterlari faoliyatining 2022-yil yakuni bilan iqtisodiy tahlil qilganimizda, viloyatda eng yuqori ko'rsatkich dukkakli ekinlar bo'lib, bu tarmoq rentabellik darajasi 45,5 foizni tashkil qildi. Viloyatdagi hosilli mevazorlar maydoni 15 939 gektarni tashkil etib, hosildorlik gektaridan 121,8 sentnerni, yalpi hosil 194 150 tonanani tashkil etib, jami xarajatlar 553 831 million so'mni, jami daromad esa 779 000 million so'mni, tarmoqdan olingan foyda 225 169 million so'mni, rentabellik darajasi 40,7 foizga teng bo'ldi. 1 gektarga mevazoraga sarflangan xarajatlar miqdori 34 748 ming so'm, 1 gektardan olingan daromad esa 48 875 ming so'm bo'ldi. 1 gektardan olingan foyda 14 127 ming so'mga yetdi. 1 tonna mevalarni olishga sarflangan xarajatlar 2 853 ming so'm, 1 tonnasini eksport qilishdan tushgan daromad esa 4 012 ming so'mni tashkil etdi. 1 tonna mevalarni ichki va xorijga eksport qilishdan olingan foyda 1 159 ming so'm bo'ldi. Viloyatimizdagi Sabzavot maydonlari 34 156 gektar, hosildorlik gektaridan 295,6 sentnerni, yalpi hosil 1 009 489 tonanani tashkil etib, jami xarajatlar 2 276 704 million so'mni, jami daromad esa 3 234 276 million so'mni, tarmoqdan olingan foyda 957 572 million so'mni, rentabellik darajasi 42,1 foizga teng bo'ldi. 1 gektarga sabzavot maydoniga sarflangan xarajatlar miqdori 66 656 ming so'm, 1 gektardan olingan daromad esa 94 691 ming so'm bo'ldi. 1 gektardan olingan foyda 28 035 ming so'mga yetdi. 1 tonna sabzavotlarni olishga sarflangan xarajatlar 2 255 ming so'm, 1 tonnasini eksport qilishdan tushgan daromad esa 3 204 ming so'mni tashkil etdi. 1 tonna sabzavotlarni ichki va xorijga eksport qilishdan olingan foyda 949 ming so'm bo'ldi. Xulosa qilganimizda, 1 tonna mevani sotishdan olingan foyda sabzavotdan olingan foydaga nisbatan 210 ming so'm ko'p bo'ldi yoki 22,1 foizga ko'pdir. Biz o'z izlanishlarimizni iqtisodiy tahlil natijalarini ayrim mahsulotlar misolida keltirdik, xolos.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 18-mart 2024-yil kuni O'simliklar karantini va himoyasi agentligida bo'lib, qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportini 3,5 mlrd dollarga yetkazish rejalari bilan tanishgan edi. Shu yig'ilishda meva-sabzavot mahsulotlarini to'g'ri qadoqlash, eksportga yetkazib berishda klaster tizimini yaratish muhimligini ta'kidladi. Meva-sabzavotchilik klasterlarida sabzavot ekinlarini hamma vaqt ham boshqa yekindardan ajratib bo'lmaydi. Chunki, karam, kartoshka, achchiq qalampir, sabzi kabilarni sabzavot ekini sifatida oziq-ovqatga, chorva mollari uchun yem-xashak va texnik maqsadlarda ishlatish uchun xomashyo sifatida yetishtirish mumkin. Ma'lumotlarga qaraganda, inson sog'lig'ining 67 – 74 foizi tashqi muhit, ovqatlanish va yashash sharoitiga, 16 – 18 foizi genetik va nasliy omillarga bog'lik ekanligi olim-mutaxassislar tomonidan aniqlangan. Birgina misol: Mashhur amerikalik shifokor N.Uoker sabzi haqida ko'plab kitoblar yozgan. Uning sabzi haqidagi bahosi quyidagicha edi: "Sabzi dahshatli saraton kasalligiga qarshi kurashda zamonamizning mo'jizasidir" ^[14].

XULOSA

Xulosa qilganda, klaster faoliyati yildan yilga yaxshilanib kamchiliklari tuzatilib, ular faoliyati takomillashtirilib borilmoqda. Joylardagi ishsizlik muammosi hal qilinishiga ham klasterlar salmoqli hissa qo'shmoqda. Izlanishlar va o'rganishlar shuni ko'rsatmoqdaki, chet el kredit liniyalari mablag'larini jalb qilayotgan mahalliy tijorat banklarining marjasi yuqori. Masalan, Germaniyaning Kommersbank yoki Landesbank kredit liniyalari mablag'larining yillik foiz stavkasi o'rtacha 0,75-1 foiz. Biroq klaster korxonalari bu mablag'larni yillik 5-6 foiz stavka bilan olishmoqda. Bu esa loyiha o'zini qoplash muddatining kechikishi, kredit majburiyatlari oshishiga olib kelmoqda.

Xulosalarimiz:

- 1) klasterlarning kelib chiqishi haqida qisqa ma'lumotlar keltirilgan. Meva-sabzavot klasterini shakllantirish va uning tarkibini ilmiy asoslashda an'anaviy bo'lgan ekin maydoni, o'rtacha hosildorlik, yalpi hosil, rentabellik darajasi va boshqa iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan to'liq tahliliy o'rganishlar qisman kiritilgan;



- 2) klasterlashtirishning asosiy afzalliklari matnda berilgan;
- 3) iqtisodiy tahlil natijalari berilgan;
- 6) barcha klaster ishtirokchilarini o'zaro manfaatli bo'lishligi imkoniyatlari kiritilgan;
- 7) investitsiyalarni jalb etish variantlari va imkoniyatlari berilgan;
- 8) infratuzilma sohasida xorijning Yaponiya va Kanada mamlakatlari tajribalaridan ham keltirilgan;
- 9) meva-sabzavotchilik klasteri tarkibiga kiradigan "Uchqora" qishlog'i uzumi va mayizi to'g'risidagi innovatsion tarixiy yangiliklar maqolaga kiritilgan.

Takliflarimiz:

- 1) qishloq xo'jalik klasterlarini tashkil qilishda olim va mutaxassislar tavsiyalariga amal qilish zarur;
- 2) klasterlar faoliyatini tashkil etish hamda samarali faoliyat olib borishini ta'minlash uchun avvalo, unda ishlaydigan xodimlar, ishchilar, ayniqsa iqtisodchi va buxgalterlarini, ya'ni mutaxassislarini nazariy va amaliy jihatdan o'qitish, qayta malakasini oshirishga e'tiborni qaratish kerakdir.
- 3) meva-sabzavotchilik klasterlari faoliyatini tashkil etish hamda samarali faoliyat olib borishi uchun nafaqat mahalliy va xorijiy sarmoyadorlarni, balki ularning mutaxassislarini ham jalb qilish zarur.
- 4) klasterlarni tashkil qilish bilan birga unda ishlaydigan ishchi-kadrlarni, menejerlarni tayyorlash, malakasini xorij mamlakatlarida, jumladan, j.koreyaliklar tajribalari asosida amalga oshirish;
- 5) klasterlarni tashkil etishda ixtisoslashtirishga ahamiyat berish;
- 6) infratuzilma (xizmat, ish) sohasida meva-sabzavotchilik klasterlarini tashkil etishda olimlar, pedagog-olimlar ilmiy-amaliy tavsiyalariga rioya qilish hamda ular bilan mehnat jarayonlarini birga tashkil etish va boshqarish maqsadga muvofiqdir;
- 7) samarqand shahrida markazlashgan "buyurtma stoli" mavjud edi, qaytadan takomillashgan holatda tiklash va uni faoliyatini iqtisodiy raqamlashtirish zarur;
- 8) ayrim tumanlarda mahalliy va xorijiy investorlarni meva-sabzavotchilik klasterlariga jalb etish, ushbu yo'nalishda qo'shma dasturlar va qo'shma korxonalar faoliyatini tashkil qilish maqsadga muvofiqdir;
- 9) kambag'allikni kamaytirish va ishsizlikka barham berish uchun joylarda, ayniqsa uzoq qishloqlarda faol tadbirkorlarni, haqiqiy ishbilarmonlarni, xalq manfaatini shaxsiy manfaatidan ustun qo'yadigan biznesmenlarni jalb qilish bilan birgalikda meva-sabzavotchilik klasterlarda mulkchilikning har xil turlari (ishlab chiqarish, tijorat, moliyaviy va konsalting turlari) va shakllarini (yakka tartibdagi tadbirkorlik; xususiy tadbirkorlik; jamoa tadbirkorligi; aralash tadbirkorlik) hayotga joriy etish, klasterlar qoshida yoshlarni o'qitish kurslarini tashkil etish va boshqarish, malakasini oshirish bilan tashkil etish zarur;
- 10) meva-sabzavotchilik, jumladan, noyob meva-sabzavotlar va boshqa nayob tarmoqlar bo'yicha klasterlarni tashkil etish imkoniyatlaridan o'z vaqtida foydalanish maqsadiga muvofiqdir;
- 11) klasterlar faoliyatini yaxshilash uchun marketolog hamda menejerlarni tayyorlash, tovarlarni mahalliy va xorijga sotishning yangi bozorlarini va kanallarini ko'paytirish imkoniyatlaridan samarali foydalanish;
- 12) olim va pedagoglar ishtirokida ularning ilmiy-amaliy tavsiyalari asosida markazlashgan "buyurtma stoli"lari ishini qaytadan mukammallashtirish holda tiklash, ayniqsa qishloqlarda;
- 13) Navoiy viloyati, Xatirchi tumanidagi Uchqora qishlog'i uzumlari va mayizlari respublikada har yili o'tkaziladigan "Uzum sayli" tanlov ko'rgazmasida ishtirok etishini ta'minlash;
- 14) yoshlar bandligini ta'minlashda va kambag'allikni kamaytirishda infratuzilma turlarini tashkil etishning iqtisodiy samaradorlikni oshirishdagi imkoniyatlaridan xorij mamlakatlari bilan qo'shma loyihalar va qo'shma korxonalarni ko'paytirish kerak;
- 15) mamlakatning barcha yo'nalishlarida shaffoflikni (korrupsiyaga yo'l qo'ymaslikni) amalga oshirish maqsadida taraqqiyotga erishish uchun raqamli iqtisodiy bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallash dasturini qaytadan tayyorlash va joriy etishni tezlashtirish zarur hamda shartdir;
- 16) Birlashgan Arab Amirligi (BAA), ya'ni Saudiya Arabistoni bilan tuzilgan 14 milliard dollarga hamda Xitoy Xalq Respublikasi bilan imzolangan 15 milliard dollarlik va boshqa xorij hamda mahalliy investorlar



tomonidan O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga kiritilgan va kiritilayotgan sarmoyalardan (investitsiyalardan) samarali foydalanish uchun, sarmoya kiritgan sarmoyachilar, banklarning mas'ullari tomonidan mablag'lardan maqsadli, o'z muddatida shaffof foydanishlikni doimiy nazoratga olishni tashkil etish. Chunki, ayrim nopok menejerlar (boshqaruvchilar) va xodimlar tomonidan o'z manfaatlarini yo'lida ushbu mablag'lardan foydalanishlari mumkin.

Foydalanilgan manbalar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: O'zbekiston. 2023.
2. O'zbekiston–2030 strategik dasturi, 2023-yil 11-sentyabr.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 11.09.2023-yildagi PQ-300-son, "O'ZBEKISTON – 2030" Strategiyasini 2023-yilda sifatli va o'z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori (12.09.2023).
4. Васлидинов, Б. В., Саламов, И., & Нурманов, Ш. Х. (2023). МЕВА-САБЗАВОТЧИЛИК КЛАСТЕРЛАРИДА САБЗАВОТ ЕТИШТИРИШ ВА УЛАРНИ РЕНТАБЕЛЛИК ДАРАЖАСИНИ ОШИРИШ. Научный Фокус, 1(7), 687-699.
5. Саламов, И., & Нурманов, Ш. Х. (2023). НЕРАВНОЦЕННОСТЬ В АГРОПРОМЫШЛЕННОМ КОМПЛЕКСЕ И ПУТИ ЕЕ УСТРАНЕНИЯ. Научный Фокус, 1(7), 796-801.
6. Salamov I., Jonibekov F., Kazakova Z., & Nazarova M. (2022). The Role of Investments in Ensuring the Economic Stability of Livestock and Prospective Opportunities. INTERNATIONAL JOURNAL OF BIOLOGICAL ENGINEERING AND AGRICULTURE, 1(3), 1-4.
7. Salamov I., Kazakova Z. S., Nazarova M. S., & Jonibekov F. B. (2022). Prospects for digitalization of order tables in infrastructure development in agriculture of the republic of uzbekistan.
8. Саламов И., Жонибеко Ф. Б., Казакова З. С., & Назарова М. Ш. (2022). САМАРҚАНД ВИЛОЯТИНИНГ ИҚТИСОДИЙ ТАРМОҚЛАРИДА ИННАВАЦИЯ ВА РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТНИ ЖОРИЙ ЭТИШНИНГ ИСТИҚБОЛДАГИ ИМКОНИЯТЛАРИ. Current Issues of Bio Economics and Digitalization in the Sustainable Development of Regions (Germany), 482-485.
9. Саламов, И., & Нурманов, Ш. Х. (2023). НЕРАВНОЦЕННОСТЬ В АГРОПРОМЫШЛЕННОМ КОМПЛЕКСЕ И ПУТИ ЕЕ УСТРАНЕНИЯ. Научный Фокус, 1(7), 796-801.
10. Rasul o'g'li, U. A., & Ibrohim, S. (2023). KLASSTERLARDA SABZAVOT YETISHTIRISH, TASHISH, QAYTA ISHLASH, SOTISH JARAYONLARIDA MENEJMENTI. JOURNAL OF ECONOMICS AND BUSINESS MANAGEMENT, 6(5), 39-46.
11. Саламов, И. (1991). Рентабельность производства овощей и основные резервы её повышения (на материалах Самаркандской области).
12. Ibodullayevich, O. R. F., & Turdibayevich, K. R. (2023). QISHLOQ XO'JALIGIDA CHORVACHILIK MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH. MASTERS, 1(1), 119-126.
13. Salaxiddinovna, K. Z., & Iskandarovna, I. I. (2024). OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI YETISHTIRISHNING HUDUDIIY JIHATLARI. SO'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI, 7(2), 247-256.
14. Sharipovna, N. M., & Rustamjon o'g'li, T. O. (2024). QISHLOQ XO'JALIGI IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 3(27), 269-275.
15. Baxtiyorovna, U. O., Umarovna, X. M., Muxriddin o'g'li, I. K., & Negmatovich, K. U. (2024). IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA KICHIK BIZNESNING ROLINI OSHIRISH. BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI, 4(3), 91-97.
16. Ortiqaliev, A. B. (2022). CHORVACHILIK YO'NALISHIDAGI FERMER XO'JALIKLARIDA SOTISH HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH. AGROBIOTEXNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI, 1155-1159.

Internet saytlari:

1. www.gov.uz
2. www.lex.uz
3. www.publicfinancye.uz
4. www.statistics.uz



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Alfraganus universiteti dotsenti, i.f.f.d. (PhD) Fayziyev Oybek Raximovichning umumiy tahriri ostida nashrga tayyorlandi.

O'zbek tili muharriri: Ulug'bek Eshmuradov

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Rus tili muharriri: Abdimo'min Alikulov, i.f.d., professor

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Bobur Ochilov

2024. Maxsus son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Topshirildi: 10.04.2024-yil. Nashrga ruxsat etildi: 19.04.2024-yil.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro‘yxatdan
o‘tkazilgan.